

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA BADIY ZAMON VA MAKON POETIKASI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.025>

Chuliyeva Nilufar A'zam qizi
nilufarchuliyeva@gmail.com

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Badiiy asar har bir ijodkorning ideallari, ko'ra olgan haqiqatlari, ijtimoiy munosabatlar tartibi va shu olamning shakliy xususiyatlarini aks ettiruvchi ulkan, murakkab tizimdir. Bu olamning mavjudlik shakllari esa zamon va makondir. San'at, jumladan, adabiyot ham olamning davomiy o'zgaruvchan, yaxlit manzarasini badiiy-individual tasvirlaydi. Badiiy asar muallif tomonidan real olamni subyektiv, xayoliy-emotsional tasvirlash hisobiga xususiylik kasb etadi. Ammo bu tasvirlarni adabiyotshunoslik mohiyatan umumlashtiradi. Natijada, olamning vaqtinchalik badiiy modeli yaratiladi. Ushbu badiiy modelning yaratilishida zamon va makon unsurlari katta ahamiyatga ega. She'riyatdagi zamon va makon masalasini o'rganish ham mazkur turning boshqa adabiy turlardan farqlanish xususiyatlari, tasvirlash imkoniyatlari yoki chegaralari haqida muayyan xulosalar chiqarishga daxl etadi.

Kalit so'zlar: adabiy tur, she'riyat, janr, badiiy zamon, badiiy makon, ritm, metaforik makon, tarixiy makon, tarixiy vaqt, falsafiy vaqt, siklik vaqt

POETICS OF ARTISTIC TIME AND SPACE IN MODERN POETRY

Chuliyeva Nilufar A'zam qizi
nilufarchuliyeva@gmail.com

Tashkent International University of Financial Management and Technologies

Abstract: A literary work is a vast and complex system that reflects each creator's ideals, perceived truths, the order of social relations, and the formal characteristics of this world. The forms of existence of this world are time and space. Art, including literature, artistically and individually depicts the continuous and holistic view of a changing world. A literary work acquires uniqueness due to the subjective, imaginative, and emotional depiction of the real world by the author. However, literary criticism generalizes these depictions in essence. As a result, a temporary artistic model of the world is created. The elements of time and space play an important role in the creation of this artistic model. The study of time and space in poetry involves conclusions about the distinguishing features of this genre from other literary types, its depiction possibilities, or its limitations.

Keywords: literary type, poetry, genre, artistic time, artistic space, rhythm, metaphorical space, historical space, historical time, philosophical time, cyclical time

Kirish. Badiiy adabiyot boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, zamon va makon tushunchalari bilan oson, erkin munosabatga kirishadi. Ya'ni badiiy adabiyotning quroli bo'lmish so'z bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni, bir vaqtda bir nechta joylarda sodir bo'layotgan voqeani birgina roviyning jumlasini bilan amalga oshira oladi. (Bu joyda ushbu voqea sodir bo'layotgan vaqtda mana bu yerda bunday voqea yuz berayotgan edi deb aytib qo'ya qoladi. Bu holatda na rangli bo'yoq, na navbatdagi kadr almashinuvi kerak bo'lmaydi.) Shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyot turlarida zamon va makonning tasvirlanish usullari hamda voqelanishi biroz farq qiladi. Badiiy adabiyot turlari - she'riyat, dramaturgiya va nasrda zamon va makon shakllari hamda ifoda xususiyatlari jihatidan o'ziga xosdir.

Asosiy qism. Dastavval, she'riyatdagi zamon va makonning o'ziga xosligi haqida. She'riy matn o'lchovlari to'g'risida Tomashevskiy quyidagicha yozadi: "agar nasr chiziqli bo'lsa, unda she'r ikki o'lchovli nutqdir". Baytda "nutq harakati ikki yo'nalishda sodir bo'ladi: so'zdan so'zga va misraning bir ritmik-sintaktik qismidan keyingi misraning o'xshash qismiga o'tadi". Ya'ni misralararo harakatni vertikal, so'zdan-so'zga harakatni esa gorizontal deb belgilagan [3, 267]. Shuningdek, so'zlarning tartibi va satrlarning uzun-qisqaligi vaqtning tezligi yoki sekinligini ifodalashga xizmat qiladi. Odatda, qisqa, kam bo'g'inli satrlarda harakat tezlashadi, vaqt esa qisqaradi:

Unga uqtirdilar,
Oqni qora, deb,
Chunki bir qorani,
Oqlash lozim edi.
Unga uqtirdilar
Toqni bu - juft, deb,
Chunki bitta juftni
Toqlash lozim edi.
Unga uqtirdilar
Qing'ir to'g'ri, deb,
Chunki bir qing'irni
Yoqlash lozim edi. (A.Oripov) [10, 99]

Ushbu she'riy parchada harakat ifodalovchi so'zlarning ko'pligi, qisqa to'xtamlarning salmog'i o'quvchini vaqtni his etishiga, uning joriy matndagi qisqaligini anglashiga ta'sir etadi. Aksincha, uzun jumlar, katta to'xtam va uni ifodalovchi tinish belgilari qo'llangan she'rlarda vaqt oqimi sekin, davomiy bo'ladi:

Bu xato yo'lni sekin barmog'iga o'raydi,
Makrul o'smani siqar piyolaga, to'lmaydi,

Ishq-u gunoh qozonda, o't-olovsiz qaynaydi...

Ishq-u gunoh qozonda...

Ruh qanotin savaydi, savacho'pin juft qilib,

Urchug'iga o'raydi tun-u kunni ip qilib,

Qilichini qayraydi qasd lashkarin saf qilib,

Qilichini qayraydi... (Aziz Said) [17]

Mazkur satrlardagi takrorlar vaqt oqimining davomiyligini, siklini, she'rning o'ziga xos ritmini ta'minlagan. Ikki harakat yoki tugal fikrning bir misrada voqelanishi joriy vaqt kengligini aks ettirishga xizmat qiladi. Aksincha, bir harakat-holatni bir nechta satrlarga bo'lib, to'xtamlar bilan ifodalash makon tasvirida qo'l keladi:

Oydin kecha -

Sutdek oppoq

Har yer,

Har bir joy.

Doirayi kamondan

Boqar kumush oy.

Oy nurini

Deraza

Taqib, suv oqar

Jimirlab

Oy aksi yotar.

Oy nurini

Ko'zga solib,

Ko'rdim yalangdan

Bodom gullab qolibdi

Och pushti rangda... (U.Nosir) [8, 22]

Ushbu she'rda so'zlar orasidagi bo'shliq makonning badiiy kartinasini yaratishda, asosiy urg'uni makonga berishda xizmat qilgan. Muayyan vaqt nuqtasida detallarning nozik tasvirlanishi, asosan, makonning xususiyatlari, holatiga e'tiborimizni qaratadi. Umuman olganda, semiotiklarning fikricha, matn uch o'lchov koordinatasiga ega. Birinchisi, matnning boshidan oxirigacha uzunligi bilan belgilanadi; ma'lum darajadagi konventsia bilan bu koordinatani nutq deb atash mumkin. Ikkinchi o'lchov grammatik darajalar (morfemik, leksek, sintaktik va boshqalar) ierarxiyasi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, unga parallel ravishda sof fonetik ierarxiya ochiladi: differensial xususiyatlar - fonemalar - bo'g'inlar - taktlar - jumlar va boshqalar. Uchinchisi esa so'zlarning ma'noviy jihati: denotativ yoki konnotativ ma'nosi. She'riy matnlarga ham bunday o'lchovlar oid bo'lib, odatda, buni matnning lingvistik koordinatasi deyishadi [5, 47-48]. Shuni ta'kidlash joizki, she'riyatda zamon va makonning aks etishi ritm bilan ham bog'liqdir. Ritm, vaqt va makon aloqadorligi

muammosi, albatta, alohida bir tadqiqot mavzusi. She'riy matndagi joriy vaqt va makonning xususiyatlarini tahlil etish esa she'rni to'la idrok etishni ta'minlovchi omillardan biridir.

She'riyatda makon aksariyat hollarda birlamchi bo'lmaydi, balki tuyg'u va vaqt qorishadi. Masalan,

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.

Nega buncha g'amgin nayning navosi?

Nega qalbm to'la o'kinch va malol? (A.Oripov) [9, 72]

She'rdagi "bahor kunlari", "oqshom" - badiiy vaqtni ifodalovchi bu so'zlar "g'amgin", "o'kinch", "malol" kabi tuyg'u ifodalovchi so'zlar bilan mutanosib tarzda lirik qahramon holatini tasvirlamoqda. Badiiy zamon xususiyatini ochib berish uchun shoir uni belgi jihatidan ikki qarama-qarshi vaqt bilan qo'llamoqda: "*Bahor* kunlarida *kuzning* havosi". Ba'zi she'riy matnlardagi badiiy zamon vaqtning aniq o'lchov birliklari: bir kun, ikki hafta, uch oy, bir yil tarzida ifodalanishi mumkin. Bu holda lirik qahramonning muayyan, aniq zamondagi harakat-holati belgilanadi. Ruhiy chizgilardagi ta'sirchanlik ortadi:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada.

Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada

Iste'dodim so'nganidan qilar karomat. (A.Oripov) [11, 114]

Misralardagi "olti oykim" birikmasining takrori she'rga o'ziga xos ritm bag'ishlagan. Shuningdek, muayyan vaqtning aylanma harakatini, lirik qahramon ruhiy holatining davomiyligini ifodalagan.

Odatda, she'riyatda lirik kayfiyatni, lirik qahramon hayotining biror bir davrini ifodalashda badiiy vaqt tashbehlar orqali voqelanadi. Quyidagi parchada "bahorimning yillari", "tunlarning sirlari" lirik qahramonning yoshlik davrini, yoshlikdagi sevgi xotiralarini anglatmoqda:

Men sizga achinmayman, vafosiz sevgilarda

Behuda oqib o'tgan bahorimning yillari!

Men sizga achinmayman u otashin naylarda

Ehtiros-la kuylangan, ey tunlarning sirlari. (Pushkin) [12, 57]

She'riyatda nasrdan farqli ravishda aksariyat hollarda obyektning qismlari orqali muayyan, yaxlit makon haqida ham tasavvur anglashiladi:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak

Yuksakda, shamolning belanchagida,

Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,

Viqor-la o'shshaygan qoya labida,

Nafis chayqaladi bir tup na'matak... (Oybek) [15]

Mazkur she'rdagi qoya umumiy makonning bir qismini ifodalab, butun tog' tizmalarini, yovvoyi tog' tabiatini ko'z oldimizda jonlantiradi. Kichik makon orqali katta, umumiy makon manzarasi assotsiativ tafakkur vositasida anglashiladi. Shuningdek, she'riyatda makonning aynan qayer ekani keltirilmay kichik detallar, predmetlar vositasida aniq makon haqida tushuncha paydo bo'ladi:

Yolg'iz o'tiraman, jimjit, sokin tun,
Chirsillab yonadi tugayozgan sha'm,
Qo'yin daftarimga chizadi betin
Bir dilbar suratini qadrdon qalam:
O'tgan xotiralar asta jonlanar
Qonli pardalarda soya singari,
Barmoqlar ishora qilmoqqa shoshar
Menga ezgu bo'lgan damlarning bari. (Lermontov) [16]

She'rning boshidan oxirigacha shoir o'zining qayerda ekanini so'zlamaydi. Ammo chirsillab yonayotgan sha'm, qo'yin daftar, yor portreti, parda detallaridan shoirning faqat o'zigagina tegishli, xilvat, xavfsiz, yopiq bir makonda ekani anglashiladi. Ba'zi she'rlarda makonga xos tafsilot-u tashbehlarni qo'llab, shu badiiy makonni ifodalash ham mumkin. Jumladan, quyidagi parchada "Vatan" so'zini qo'llamasdan ham poetik mazmun ona yurt haqida ekani ayon bo'ladi:

Zamburug'ning zahira ganjidan shirin,
arazkash suluvning ranjidan shirin,
hur go'dak "inga"sin avjidan shirin
hilqat bor -
Bir aziz. Bii-ir aziz...." (H.Hasan) [18]

Shuningdek, detallar, predmetlar orqali nafaqat muayyan makonga, balki millatga, milliylikka ham ishora etiladi. Umuman olganda, makon va milliylik, milliy xarakter tushunchalari bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lib keladi. Masalan:

Qay qo'raga kirsang - eshigi ochiq,
Bir nima tatiysan, qo'ymas, aslo och.
Qoraqumg'on qaynar, yozilur chochiq,
Zog'orami, so'kmi, yovg'on yo umoch
Borini ayamas, barini qo'yar.
Yupqami yo go'ja, talqon, qo'g'irmoch,
Qurutmi yo jiyda - o'rta uyar. (Mirtemir) [7, 207]

Misralardagi ochiq eshik (uy makonining bir qismi; mehmondo'stlikka ishora), qora qumg'on, taom va oziq-ovqat nomlari o'zbek diyorini, o'zbekka xos xarakter va milliy turmush tarzini ifodalashga xizmat qilmoqda.

She'riyat ruhiyatimizni idrok etishga qaratilgani uchun makon, ko'pincha, mavhumlik sifatiga egadir. Binobarin, murakkab ruhiy tabiatimizning tortishish kuchi noaniqlik makoni bilan oson uyg'unlashadi:

Siz, azizim, laziz ismim endi hech qachon

Na kun, na tun, *hech qayerda* aytmayisiz, tamom.

Va kaliso tinchin buzib endi bir zamon

Boshimizda yangramagay ilohiy kalom. (M.Svetayeva) [19]

Ushbu bandda *hech qayerda* birikmasi mavhum makonni ifodalamoqda. Odatda, hech yer, hech joy, hech qayer, qayerdir kabi so'zlar mavhumlik, noma'lum joy ma'nosini beradi. Bu so'zlar bilan bog'liq voqea-hodisa, jarayon va harakatlar ham bo'lishsizlikni xarakterlaydi.

Yo'l makoni esa o'z ma'nosidan tashqari metafora tarzida "hayot, umr, taqdir, mashaqqat, ilm, adolat, ezgulik, qaror" va hokazo ma'nolarni ifodalab keladi. Bu ma'nolardan qaysi biri qo'llanmasin mazkur makon turli chiziqli (vertikal yoki gorizantal) shaklda tasavvurimizda akslanadi: "Haq yo'li, albatta, bir o'tilg'usi Jandalar tanimga tekkan kunlarda!.." Yoki:

Yurgan yo'lim to'fon bu g'amli fursat...

Qat'iyat ko'z yoshday oqqan mahali,

Yurak, rahming kelsin, to'g'ri yo'l ko'rsat,

Men qanday Boysundan ketay ajralib? (U.Azim) [20]

Yuqoridagi satrlarda yo'l - adolat, haqiqat; taqdir, to'g'ri qaror qilish yo'li mazmunini tashimoqda. Ammo bir jihat borki, yo'lning gorizantal va vertikkallaigiga ko'ra, ma'noviy anglami, tasvir usuli farqlanadi. Ya'ni: "oddiy odam gorizantal yo'lni bosib o'tishi va uni maxsus harakatlar bilan yakunlashi mumkin, ammo vertikal yo'lni faqat majoziy ma'noda - uning ruhi bilan yakunlash mumkin" [4, 261]. Yo'l, odatda, har qanday mazmunda muayyan manzilga eltuvchi makon bo'lib, davomiylik ma'nosini beradi.

She'riyatda zamon juda nozik his etiladi. Ya'ni bu turdagi zamon ko'proq lirik qahramonning ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgani uchun o'tmish, hozir va kelajak o'zaro uyg'unlashib, jipslashib ketadi:

Og'ir yo'lda,

Olis yo'lda

Yiqildim dema,

O'zi qisqa yo'lning yarmida

qolding sen.

Hali, tamom, degan gap emas... (R.Parfi) [13, 213]

Yoki shu shoirning:

Ba'zan nafis hislar uyg'onar,

To'lqinlar to'lg'onar qalbingda...

Mayli, qayg‘u qoshingda turar,
Lekin shodlik bordir oldinda. [13, 157]

Birinchi parchadagi lirik qahramonning o‘tmish va hozirdagi holati “hali, tamom, degan gap emas” tarzidagi qarori harakatning davomiyligini, uning kelasi zamonga daxldorligini e‘tirof etmoqda. Ikkinchi parchada “lekin shodlik bordir oldinda” izohi hali oldinda turgan imkoniyatlar va vaziyatlarni qo‘lga olish kerakligi haqida xabar bermoqda. Natijada, qahramonni kelasi zamon bilan bog‘lamoqda. “Og‘ir yo‘l, olis yo‘l” ifodalari esa metaforik ma‘no tashigan. Badiiy makonni ham metaforik makon deyishimiz mumkin.

She‘riyatda zamonning tarixiyligini ta‘minlash uchun ko‘proq ma‘lum obyekt bilan qiyoslash yoki misollar orqali dalillash yo‘lidan boriladi. Bu orqali asarning emotsionalligi ta‘minlanadi. Shoirning tasavvur va tafakkur kengliklari necha ming asrlar oldinga, qadimiy makonlarga borib tutashadi:

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o‘zbeqim,
Senga tengdosh *Pomir-u*
Oqsoch *Tiyonshon*, o‘zbeqim.
So‘ylasin *Afrosiyob-u*,
So‘ylasin *Urxun xati*,
Ko‘hna tarix shodasida
Bitta marjon, o‘zbeqim. (E.Vohidov) [14, 67]

Ko‘ringanidek, mazkur misralarda ming asrlik tarixga ega ulug‘ ona diyor tasvirlanmoqda. Shoir bu tarixning qadimiyligini dalillash uchun Pomir, Tiyonshon tog‘lari, Afrosiyob (qadimiy qal‘aning nomi; afsonaviy qahramon), Urxun yozuvi kabi ifodalarni faol qo‘llaydi.

She‘riy asarlarda vaqt majoz vositasida ifodalanar ekan, uzoq vaqt oniy lahza sig‘imidek, tez, “yugurik” bo‘ladi. Bunday vaqtga mos harakat ham majoziy xarakterga ega bo‘ladi:

Men she‘r yozsam,
Endi uni qog‘ozga emas,
Anov yal-yal yonayotgan o‘tga yozaman... (O.Matjon) [6, 66]

Mazkur misralarda she‘r va o‘t-olov so‘zlari dard va yurak tushunchasini yetaklab keladi. Olovning yal-yal yonishi go‘yoki, she‘rda yurak urishini ifodalab, nutqqa ham o‘zgacha ohang bag‘ishlaydi. Shoir yuragida - ichki makonda kechayotgan tuyg‘ular vaqtning ham subyektivligini ifodalaydi.

She‘riyatda grammatik hozirgi zamonning yetakchiligi, ayni paytlilikning ustunligi seziladi. Vaqt kategoriyasining o‘zi ham she‘rning asosiy mulohaza predmeti, falsafiy asosi bo‘lishi mumkin:

Vaqt o‘tmoqda,

Nonushtasi yo‘q, tushligi yo‘qdir uning,
U davomli harakat uyqusida.
Vaqt o‘tmoqda. (R.Parfi) [13, 317]

Ushbu satrlarda vaqtning ustunligi seziladi. Ya’ni, odatda, ba’zi she’rlarda badiiy vaqt markaziy o‘rinda turadi. Bu she’rlar ko‘pincha vaqtning o‘tuvchanligi, inson umrining qisqaligi yoki abadiylik haqidagi falsafiy mulohazalarni aks ettiradi. Bunday asarlarda makon ikkinchi darajaga tushib, asosan vaqtga bog‘liq holda ma’no kasb etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko‘ringanidek, lirik she’rlarda ko‘pincha vaqt shaxsiy tajriba va his-tuyg‘ular orqali yetakchilik qiladi. Manzaraviy, tarixiy (ba’zan ijtimoiy) mavzulardagi she’rlarda esa makon markaziy o‘rinni egallashi mumkin. Ko‘pgina hollarda esa vaqt va makon bir-birini to‘ldirib, she’riy asarning mazmunini chuqurlashtiradi. Ba’zan she’riyatda zamon va makon masalasi she’riy janrlar hamda ularning shakliga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, sonet janrining shakli vaqtning qisqarishi, aniq bir vaqt mobaynida kechadigan voqealarni tasvirlash uchun shakl va ritmning o‘zi vaqtning o‘tishini ifodalaydi. Yozish uslubi, satrlarning uzunligi, she’rning ritmi va tuzilishi o‘quvchiga joriy vaqt qanday o‘tayotganini his etishga yordam beradi. Demak, she’r shakllari orqali ham vaqtning o‘tishini yoki davomiyligini anglash mumkin. Umuman olganda, she’riyatdagi ritm, zamon, makon masalalarini yaxlitlikda o‘rganish mazkur tur va tushunchalarni nazariy hamda mazmunan teranroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Башляр Г. Избранное: Поэтика пространства /Пер. с франц. - М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. - 376 с.
2. Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. Ред.кол. - Л.: Наука, 1974. - 300 с.
3. Томашевский Б. О стихе. - Л: Прибой, 1929. - С. 254-318.
4. Топоров В.Н. Пространства и текст // Текст: семантика и структура. - М., 1983. - С. 227-284.
5. Шапир М.И. Язык-стих-смысл в русской поэзии XVIII-XX веков. - М.: Языки русской культуры, 2000. - 536 с.
6. Matjon O. Maqsudam. - Toshkent: Adabiyot, 2021. - 128 b.
7. Mirtemir // Turkiy adabiyot durdonalari. 20 - jild. - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2022. - 296 b.
8. Nosir U. Ertani sevinib kut. - Toshkent: Adabiyot, 2021. - 120 b.
9. Oripov A. Saylanma. - Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. - 128 b.
10. Oripov A. Tanlangan asarlar. II jild. - Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2001. - 496 b.

11. Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom NMIU, 2000. - 432 b.
12. Pushkin A.S. Bogʻchasaroy fontani. - Toshkent: Oʻzbekiston NMIU, 2019. - 440 b.
13. Rauf Parfi. Saylanma. 1- jild. - Toshkent, Muharrir, 2022. - 416 b.
14. Vohidov E. Oʻzbekim. - Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. - 320 b.
15. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/oybek-1905-1968>
16. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/mixail-lermontov-1814-1841>
17. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/aziz-said-dili-qani-bedilning.html>
18. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hol-muhammad-hasan-sherlar.html>
19. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/marina-svetayeva-besh-tarjima.html>
20. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/usmon-azim-1950>